


V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 2023- yil 1- yanvar holatiga 44 658 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ni tashkil etdi. Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.


**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2023- yil 1-yanvar holatiga



Ma'lumot uchun: 2023- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 184 mingtaga ortdi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes subyektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 4 039 mingtaga ortishi kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlarda 112,5 % ni tashkil etdi. Ularning soni 1 474 taga ortdi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etib, ularning soni 120 taga ko'paydi.

2023- yil 1- yanvar holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2023- yil 1- yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar 29,7 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,4 % ga teng bo'ldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)

	<i>mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
Jami – xizmatlar	17 642,4	112,9	100,0
<i>jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	842,3,0	127,5	4,8
moliyaviy xizmatlar	3 593,0	118,9	20,4
transport xizmatlari	3 460,6	108,0	19,6
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmati	3 357,4	107,5	19,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	325,1	112,7	1,8
savdo xizmatlari	5 478,7	108,4	31,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	475,9	111,1	2,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	919,9	133,6	5,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	294,6	98,9	1,7
ijara xizmatlari	424,4	116,6	2,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	392,5	102,2	2,2
shaxsiy xizmatlar	850,4	111,5	4,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	133,9	111,0	0,8
boshqa xizmatlar	451,3	119,0	2,6

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,0 %), moliyaviy xizmatlar (20,4 %), transport xizmatlari (19,6 %) tashkil etadi. Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni ta'lim sohasidagi xizmatlar (5,2 %), yashash va ovqatlanish kabi xizmatlar (1,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, shuningdek, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,8 %) egalladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2022- yil yanvar-dekabr, jamiga nisbatan % da)




Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 31,0 % - eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulush 82,1 % ni tashkil etadi.



2017-2022- yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida ta'lim sohasidagi xizmatlar – 133,6 %, aloqa va axborotlashtirish – 127,5 %, moliyaviy xizmatlar – 118,9 % ko'rsatkich bilan yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %
(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)**



Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 118,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (116,6 %)ni va boshqa xizmatlari (119,0 %)ni, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari (102,2 %) qayd etildi.

Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari – 31,1 % ulush bilan yetakchi o'rinni egalladi. Savdo xizmatlari hajmining oshish omillari yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Xizmatlar tarkibida transport xizmatlarining jami hajmga nisbatan ulushi 19,6 % ko'rsatkichga ega.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlar yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar (1,8 %), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,8 %) ga to'g'ri kelgan.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish
(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr-ga nisbatan %</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr-ga nisbatan %</i>
Andijon viloyati	17 642,4	112,9	100,0	5 365,4	110,6
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	6 264,3	113,1	35,5	13 521,8	110,9
Xonobod	415,4	111,3	2,4	9 336,4	109,0
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko‘l	740,4	113,1	4,2	3 962,0	110,6
Andijon	1 086,9	113,7	6,2	3 924,8	111,1
Baliqchi	962,9	112,9	5,5	4 602,9	110,7
Bo‘ston	289,3	112,5	1,6	3 833,2	110,2
Buloqboshi	563,4	113,0	3,2	3 795,2	111,0
Jalaquduq	774,5	112,9	4,4	4 006,3	110,8
Izboskan	851,9	112,4	4,8	3 435,4	110,3
Ulug‘nor	239,4	112,1	1,4	3 836,0	109,9
Qo‘rg‘ontepa	868,6	114,3	4,9	3 876,2	112,4
Asaka	1 311,4	111,7	7,4	3 815,0	109,3
Marhamat	713,8	111,5	4,0	3 951,9	109,2
Shahrixon	958,4	114,1	5,4	3 056,1	111,7
Paxtaobod	696,2	112,8	3,9	3 445,9	110,4
Xo‘jaobod	905,5	111,0	5,1	7 829,1	108,4

1) Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo‘shgan holda

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur‘ati Qo‘rg‘ontepa tumani (114,3 %), Shahrixon tumani (114,1 %) Andijon tumani (113,7 %) va Andijon shahri (113,7 %) ga to‘g‘ri keldi.

Nisbatan past o‘sish sur‘atlari Asaka tumani (111,7 %), Marhamat tumani (111,5 %) Xonobod shahri (111,3 %)larida kuzatildi.


Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning 112,9 % dan ortig‘i Qo‘rg‘ontepa tumani (114,3 %), Shahrixon tumani (114,1 %), Andijon tumani (113,7 %) va Andijon shahri (113,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Nisbatan past ulushga ega tumanlar Boston tumanlarida (1,6 %) va Ulug‘nor tumanida (1,4 %) kuzatildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5 365,4 ming so‘mni tashkil qildi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 110,6 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkich hududlar o‘rtasida Xonobod shahrida 9336,4 ming so‘mdan Izboskan tumanida 3 435,4 ming so‘mgacha oraliqni tashkil etadi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘shish sur‘ati
(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Andijon shahrida 13 521,8 ming so‘mga teng bo‘lib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o‘shishi Qo‘rg‘ontepa tumani (112,4 %) va Shahrixon (111,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi, Paxtaobod (110,4 %), Bo‘ston (110,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini, yetarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog‘liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.